

MUTAXASSISLIKNI O'RGANISHDA SUN'IY INTELLEKT PLATFORMALARIDAN FOYDALANISH

Komiljonova Madina Quvondiq qizi

University of Management and Future Technologies universitetining,

“Dasturiy injiniring” yo‘nalishi, 2 bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20282796>

Kalit so‘zlar: sun‘iy intellekt, ta‘lim tizimi, individual ta‘lim, mutaxassislik ta‘limi, AI platformalari.

Kirish

XXI asrga kelib ilm-fan shiddat bilan rivojlanayotganda, ta‘limning uslublari ham o‘z o‘rnini aynan shu taraqqiyotga moslashuvchan va interaktiv metodlarni qo‘llagan holda interfaol uslublarni qo‘llab o‘zgarishni talab etmoqda. Ayniqsa, mutaxassislik yo‘nalishlarida sun‘iy intellekt platformalardan foydalanish nafaqat ishning unumdorligini oshirib, balki murakkab masalalarda ijobiy yechimlarni taqdim etmoqda.

Tim Hesse ta‘kidlaganidek: “Biz sun‘iy intellektidan insonning tabiiy imkoniyatlarini yanada kuchaytirish uchun foydalanamiz” deb e‘tibor qaratgan. Albatta, bu fikr sun‘iy intellekt imkoniyatlarini inson ongi bilan almashtirish emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishda ahamiyatli hisoblanadi. Yana bir olimning fikricha, Dr.Elini Xilakis: “sun‘iy intellekt boshqa raqamli texnologiyalardan jamiyat va ta‘lim tizimini tubdan o‘zgartirish imkoniyati bilan bilan ajralib turadi ” degan fikrlarni bildirgan.

Ushbu mavzu hozirgi kunning dolzarbligi bilan ajralib turadi, chunki zamonaviy mutaxassislardan nafaqat nazariy bilim ko‘nikmalari bilan chegaralanmay, balki amaliy ko‘nikmalarni, shu jumladan sun‘iy intellekt texnologiyalaridan, uning yagona korpus ma‘lumotlar bazasidan yangi g‘oyalarni talabgor so‘roviga asosan tahlil qilib berishi va uni kengaytirishni va mulohaza qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish talab etilyapti. Rusmiyanto fikriga ko‘ra, sun‘iy intellekt til o‘rganish va bilim olish jarayonini rivojlantiruvchi ilg‘or vosita hisoblanadi hamda individual va interaktiv ta‘lim imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga, Oke O.A sun‘iy intellekt asosidagi vositalar har bir talabaning ehtiyojiga moslashtirilgan ta‘lim muhitini yaratishni ta‘kidlaydi. Aynan shu ko‘nikmalarni talabalarda hosil qilish uchun sun‘iy intellektni ilm taraqqiyotiga joriy etish uchun malakali kadrlar sonini oshirish lozim. Woo va Choi fikricha, talabalar va o‘qituvchilar sun‘iy intellekt texnologiyalari bo‘yicha asosiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak. Negaki o‘z kasbining ustasi bo‘lganlar barcha jabhalarga sun‘iy intellekt kirib borishida asosiy omil bo‘la oladilar.

Zamonaviy manbalardan foydalangan holda sun‘iy intellektning eng katta yutuqlaridan biri - inson xatolarini kamaytirishdir. Odamlardan farqli ravishda, kompyuter mashinasi to‘g‘ri dasturlashtirilgan bo‘lsa, xatolarga yo‘l qo‘ymaydi. Thomas D.Yawkey kompyuter texnologiyalari insonlarga katta hajmdagi ma‘lumotlarni qayta ishlashni yengillashtirib, analitik fikrlashni rivojlantirishni ta‘kidlagan. Shu sababli ham, sun‘iy intellekt avval saqlangan ma‘lumotlarni to‘plab, xatolik ehtimolini kamaytirish va aniqlikni oshirish orqali bir qancha algoritmlardan foydalanadi. Shunday ekan, sun‘iy intellekt qiyin hisob-kitoblarni talab qiladigan vaziyatlarda va xatosiz bajarilishi mumkin bo‘lgan murakkab amaliyotlarda qo‘l keladi.

Bir qancha ijobiy tomonlari ko‘rilgandan so‘ng undagi xavflar va salbiy tomonlarga ham nazar tashlanadi. Sababi sun‘iy intellekt tomonidan noto‘g‘ri yoki ishonchligi tekshirilmagan

ma'lumotlarning taqdim etilishi mumkin. Dr.Elini Xilakisning ta'kidlashicha, sun'iy intellekt an'anaviy texnologiyalardan farqli ravishda axloqiy va ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltiradi. Insondagi kritik fikrlashning susayib borishi, ya'ni tayyor javoblarga o'rganib qolish natijasida bo'lajak mutaxassislarda mustaqil mulohaza yuritish qobiliyati pasayib boradi. Ilmiy manbalar "maxfiylik va xavfsizlik muammolari, ishonchsizlik va sun'iy intellekt tizimidagi ehtimoliy noto'g'ri qarashlar asosiy muammolardan hisoblanadi", deb qayd etilgan. Yana bir asosiy jihat shundaki, faqat sun'iy intellekt platformasi bilan muloqot qilib bilim ko'nikmalariga ega bo'layotgan talabalarda ustoz-shogird an'alaridan uzishga va ijtimoiy muloqot ko'nikmalariga putur yetkazishi ham mumkin.

Mening fikrimcha, hozirgi kunda sun'iy intellekt platformalaridan foydalanish talabalarga ancha qo'l kelmoqda. Ayniqsa, mustaqil ta'lim olishda, kerak bo'lgan ma'lumotlarni tezda topishda, murakkab mavzularni tez va oson tushunishda yordam bermoqda. Boshlang'ich darajadagi dasturchilar uchun ham foydali bo'lmoqda, ya'ni kod yozishni o'rganishda, xatolarni topishda va algoritmlarni tushunishda katta yordam beradi. Dasturchilar kodlarni qayta-qayta yozishga ko'p vaqt sarflamasdan, sun'iy intellekt yordamida faqat kerakli kod namunalarini yaratishi mumkin. Bundan tashqari ko'plab dasturlash tillarini o'rganish aynan sun'iy intellekt yordamida ham foydali hisoblanadi.

Lekin, faqatgina sun'iy intellektga tayanib qolmaslik kerak. Chunki, doimiy tayyor ma'lumotlardan mustaqil fikrlashni susaytirishi mumkin. Sun'iy intellekt bizga yordam veruvchi texnologiya sifatida xizmat qilishi kerak. Agar undan to'g'ri foydallanilsa, sun'iy intellekt samarali yordamchi bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda sun'iy intellekt platformalari ta'lim tizimining asosiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, mutaxassislik fanlarini o'rganishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish talabalarning bilim olish jarayonini yengillashtirib, vaqtini tejash, mustaqil o'rganish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Talabalarga sun'iy intellektidan oqilona foydalanishni, bizning fikrimizcha, maktab ta'limidayoq boshlash kerak. Afsuski, o'quvchilarning sun'iy intellekt javoblariga bog'lanib qolishi bugungi kunda yuqori darajada. Ko'p hollarda sun'iy intellektning javoblarini tahlil qilmasdan, qayta mulohaza qilmasdan ko'chirib olish holatlari o'quvchilarning kognitiv faoliyatini rivojlantirishga to'sqinlik qilyapti. Ammo o'z vaqtida yosh avlodni texnika qoidalaridan foydalanish qoidalarini o'rgatish, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish yo'riqnomalar hamda alohida o'quv darslarini tashkil etish kelajak avlodning ta'lim olishdagi unumdorligini, tanqidiy fikrni, tahliliy munozaralarni rivojlantirishga olib keladi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, sun'iy intellekt platformalari o'qituvchilar faoliyatida ham qulaylik yaratadi. Darslarni yanada faol qilish, ma'lumotlarni tizimlashtirish, talabalar bilimlarini baholash hamda individual yondashuvni shakllantirishda ham sun'iy intellekt texnologiyalarini kengaytiruvchi vosita hisoblanib, ta'limning sifat jihatdan rivojlanishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, sun'iy intellekt platformalaridan oqilona va samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashda ilm-fan taraqqiyotini jadallashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Kasimova D. X, Ikromova S.A, Technology Integrated Pedagogy and Learning, Journal of

Higher Education and Academic Advancement, Homepage:

<https://journal.antispublisher.id/index.php/EJHEAA>, 2025, Page 203-211

2. E. Xilakis, «AI and Education: Ethics for a New Teaching Culture». 2024 y. <https://blog.corrected.ai/ai-and-education-ethics-for-a-new-teaching-culture/>

3. S. Trostle и T. Yawkey, «Creative Thinking and the Education of Young Children: The Fourth Basic Skill», International Journal of Early Childhood, cc. 67–71, 1982, doi: 10.1007/BF03174881.

4. O. A. Oke, D. I. Jamil, и N. Çavuş, «The Impact of Artificial Intelligence in Foreign Language Learning Using Learning Management Systems: A Systematic Literature Review», Information Technologies and Learning Tools, c. 215, 2023, doi: 10.33407/itlt.v95i3.5233.

5. L. Woo и H. H. Choi, «Systematic Review for AI-based Language Learning Tools», arXiv preprint, 2021, doi: 10.48550/arXiv.2111.04455.

6. R. Rusmiyanto, N. Huriati, N. Fitriani, N. K. Tyas, A. Rofi'i, и M. N. Sari, «The Role of Artificial Intelligence in Developing English Language Learner's Communication Skills», Journal on Education, cc. 750–757, 2023.

7. <https://minjusttraining.uz/news/talimda-suniy-intellekt-imkoniyatlar-muammolar-va-istiqbollar>